

Единый портал корпоративной информации

Объявления

"O'zRTXB" AJ

Объявление

"O'ZBEKISTON RESPUBLIKA TOVAR-XOMASHYO BIRJASI" AKSIYADORLIK JAMIYATI

UZEX KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA XALQARO SERTIFIKAT TALABLARIGA MUVOFIQLIGINI TASDIQLADI

"O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi" AJ korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki menejment tizimining "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi" **ISO 37001:2016** xalqaro standartiga muvofiqligini tasdiqlash bo'yicha ikkinchi kuzatuv auditini yakunladi.

"**CERT international**" xalqaro tashkiloti tomonidan o'tkazilgan keng qamrovli audit natijalari kompaniyada **jahon standartlariga** javob beradigan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi amalda mavjudligini tasdiqlaydi.

Mazkur sertifikat O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasini korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga nisbatan **murosasiz munosabatda bo'lishini** anglatadi va birja xizmatlarining **jozibadorligi** hamda mijozlar, biznes hamkorlar va elektron savdo ishtirokchilari, shu jumladan tadbirkorlarning shaffof birja savdolari va onlayn auksionlarga bo'lgan **ishonchini oshirishga** xizmat qiladi.

Kuzatuv auditning muvaffaqiyatli yakunlanishi ko'p jihatdan birjada korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha **yagona siyosatning** joriy etilganligi va korrupsiyaga qarshi **samarali boshqaruv tizimini** tashkillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Xususan, "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi" AJda malakali mutaxassislar bilan ta'minlangan **Komplayens nazorat, korrupsiyaga qarshi kurashish va axborot xavfsizligi bosh boshqarmasi** tashkil etilib, samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Bundan tashqari, birjaning xaridlar tizimi qayta **ko'rib chiqildi**, barcha biznes-jarayonlarning korrupsion xavf-xatarlarga moyilligi muntazam ravishda **baholanmoqda** hamda kadrlarning **komplayens-madaniyatini** oshirish maqsadida xodimlar o'qitilmoqda va tegishli so'rovnomalar o'tkazilmoqda.

Birjada **muloqot aloqalari** va **jamoatchilik nazoratining** samarali tizimi ham yaratilgan. Elektron savdolarida ishtirok etishda muammolarga duch kelgan holda fuqarolar va tadbirkorlar @uzexfeedbackbot (<http://@uzexfeedbackbot>), korrupsiya holatlari bo'yicha esa @uzexanticorruptionbot (<http://@uzexanticorruptionbot>) telegram-botlari orqali murojaat qilishlari mumkin.

Eslatib o'tamiz, "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi" AJ **ISO 37001:2016** "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi" xalqaro standarti bo'yicha sertifikatni ilk bor **2021 yilda** olgan edi.

АО «Узбекская республиканская товарно-сырьевая биржа» завершила второй наблюдательный аудит на соответствие внутренней системы менеджмента противодействия коррупции требованиям международного стандарта **ISO 37001:2016** «Система менеджмента противодействия коррупции».

Результаты масштабного независимого аудита, проведенного международной организацией "**CERT international**", подтверждают наличие в компании системы менеджмента противодействия коррупции, функционирующей согласно ведущим **мировым практикам**.

Данный сертификат означает **непримиримое отношение** Узбекской республиканской товарно-сырьевой биржи к любым проявлениям коррупции и служит повышению **привлекательности** биржевых услуг и **доверия клиентов**, бизнес-партнеров и участников электронных торгов, в том числе предпринимателей в организации прозрачных биржевых торгов и онлайн-аукционов.

Успешное прохождение наблюдательного аудита во многом связано с внедрением на бирже единой политики **по борьбе с коррупцией и построением эффективной системы менеджмента противодействия коррупции**.

В частности, на Узбекской республиканской товарно-сырьевой бирже создано и эффективно действует **Главное управление комплаенс-контроля, антикоррупции и информационной безопасности, который укомплектован квалифицированными специалистами**.

Кроме того, **пересмотрена** закупочная деятельность биржи, регулярно **оцениваются** все бизнес-процессы на предмет коррупционных рисков, а также проводятся обучение и опрос сотрудников для повышения **комплаенс-культуры** персонала.

На бирже также создана эффективная система **обратной связи и общественного контроля**. Так, по вопросам участия в электронных торгах, граждане и предприниматели могут обратиться в telegram-бот **@uzexfeedbackbot**, а при столкновении с коррупционными проявлениями на бирже они могут обратиться через telegram-бот **@uzexanticorruptionbot**.

Напомним, что АО «Узбекская республиканская товарно-сырьевая биржа» впервые получила сертификат по международному стандарту **ISO 37001:2016** «Система менеджмента противодействия коррупции» **в 2021 году**.

09.03.2023

Источник: <https://openinfo.uz/en/announce/15089/>

Дата: 03.06.2023